



UDK: 311.752

ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR ASOSIDA TALABALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH MEXANIZMLARI

Jumaniyozova Nasiba

Toshkent davlat transport universiteti

F.f.b.f.d.(phd), dotsent

+99871 299-02-36

<https://orcid.org/0000-0001-8208-4276>

e-mail: jumaniyazovan87@gmail.com

TDTrU.f.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik metodlar va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif metodlarning tadqiqotlari, amaliy laboratoriyalari hamda pedagogik faoliyatdagi interaktivlik, shaxsga yo'llangan jismoniy va jismoniy mehnat haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, metodologiya, ta'lim-tarbiya, interfaol metodlar, pedagogika, innovatsion texnologiya, o'yin texnologiyasi, yuksak ma'naviyat.

MECHANISMS OF EDUCATION AND EDUCATION OF STUDENTS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL METHODS

Annotation. This article analyzes modern pedagogical methods used in the process of education and upbringing of students in higher education and the mechanisms for their effective implementation. The author discusses the research of methods, practical laboratories, as well as interactivity in pedagogical activity, physical and physical labor directed at the individual.

Keywords: education system, methodology, education, interactive methods, pedagogy, innovative technology, game technology, high spirituality.

МЕХАНИЗМЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Аннотация. В статье анализируются современные педагогические методы, используемые в процессе обучения и воспитания студентов в высшей школе, и механизмы их эффективной реализации. Автор рассматривает исследования методов, практические лаборатории, а также интерактивность в педагогической деятельности, физический и физический труд, направленный на личность.

Ключевые слова: система образования, методика, образование, интерактивные методы, педагогика, инновационные технологии, игровые технологии, высокая духовность.

KIRISH

Globallashuv va faol axborot almashinuv jarayonida ommaviy madaniyatning tobora avj olib borishi, XX asrda terrorizim, ektremizm, odam savdosi, giyohvadlik kabi illatlar davlatlar rivojiga to'siq bo'lgan bo'lsa, XXI asrda yuqoridagi vayronkor illatlar qatorida raqamli fobiya, raqamli demans, sotsial qaramlik kabi illatlar tobora katta auditoriyani qamrab olmoqda. O'quvchilarda mazkur buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni hosil qilishda axloqiy qarashlarni, insoniy fazilatlarni Soft skills – hayotiy ko'nikmalar sifatida rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lif tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyalarini, insoniy fazilatlarni, ya'ni qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni rivojlantirishda aksilogik yondashuv bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda insoniylikni belgilab beruvchi shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish, Soft Skills, "4K" ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, mazkur ko'nikmalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, pedagogik-diagnostik korreksiyalash faoliyatini tizimli amalga oshirish va o'quvchilarning shaxsiy qadriyatları, axloqiy qarashlari, insoniy fazilatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentlik sifat (kompetensiya)lariga egaliklarini aniqlash va baholashni taqozo etmoqda. Shu bois so'nggi yillarda uzlusiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini aniqlash va baholashga e'tibor qaratilib, bu yo'lda amaliy harakatlar olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lif muassasalarida pedagog kadrlarni yetishtirish masalasi ko'plab umumiy ilmiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy jarayonlar tutashgan joydadir. Pedagoglarning o'zi muhim ijtimoiy rol o'ynaydigan ziyorilarning o'ziga xos guruhini tashkil etadi. Aynan oliy ta'lif muassasasining pedagogsi zamонавији raqobat sharoitida yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishga bevosita javobgardir. O'zbekiston Respublikasi kelajak taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-



siyosiy va huquqiy omillarga va shu bilan birga madaniyma'naviy sohalarda amalgalashirilayotgan islohotlarga bog'liqdir.

Oliy ta'lif dagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, talabalarda mustaqillik va ijodiy faoliyotning rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Ta'lif metodlari: tushuncha, funksiya, tasnif. «Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'lli» kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari»¹ deya sharhlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'tilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi. Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida talabalarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini uqtirgan.

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalananib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini anikqash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi talabalar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlagandar.

Burxoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'linda talabalarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va talabalarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan talabalardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul talabalarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalari talabalarini yangicha tafakkurga ega, ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash o'quv muassasalarimiz oldida turgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bunday muammolarni hal etish ko'p jihatdan ta'lif-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar, vositalar va ularni shakllantirish yo'llariga ham bog'liq. Demak, ta'lif muassasalarida yoshlarni mustaqil ishlash faolligini boshqarishda professor-pedagog tomonidan ta'lif-tarbiya jarayonini uzluksiz ravishda barcha bosqichlarda amalga oshirishlariga bog'liq, deyish mumkin. Buning uchun ta'lif dargohlarida mustaqil ishlashga o'rganish tarbiyasini shakllantirishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoq lozim. Pedagogik ta'lif-tarbiya tizimida har bir fan talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ma'lum maqsadlar uchun o'z ta'sirini o'tkazadi. Talabalarni axloq qoidalari, fanlar bo'yicha bilimlarni baholash mezonlari, ichki tartib-qoidalari va nizomlari bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar —O'yinli pedagogik texnologiya ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarning o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K.Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'naliishlari ishlab chiqilganini e'tirof etmay bo'lmaydi. Olimning fikriga ko'ra, pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'naliishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilganda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bo'linadi. Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan. Oliy Oliy ta'lim amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan. Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, N.Y.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy jihardan asoslangan. Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish ham alohida ahamiyatga ega. Shu xususda, o'yin orqali og'zaki savol-javob usuli an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Og'zaki savol-javob orqali tashkil qilingan o'yin texnologiyasi talabalarni hozir javoblikka tayyorlaydi. Og'zaki savol-javob orqali tashkil qilingan o'yin yakka va yopasiga so'rash tariqasida amalga oshiriladi. Yakka talabadan so'ralganda pedagog talabaga savol beradi, uning javoblaridan talaba materialini qanchalik o'zlashtirganligi ma'lum bo'ladi. Butun guruh yoppasiga so'ralganda, pedagog o'zaro mantiqiy bog'langan savollarni tanlaydi va ularni butun guruh talabalariga tashlaydi. Bunday holatda talabalarning javob berishga faolligi aniqlanadi. Og'zaki savol-javob talabalarni so'zamollikka, aniq



so'zlar ishlatib, mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimni so'zlarda ifodalashga o'rgatadi hamda og'zaki nutq madaniyatini o'stiradi. Pedagogning vazifasi, talabalar nutqidagi ba'zi nuqsonlarni ustalik bilan talabaning izzat-nafsiga daxl qilmasdan, kamsitishlarsiz to'g'rilashdan iborat. Bu o'yin turi talabalarda nutq o'stirish mezonini tarbiyalash turiga kiradi.

Metodik ko'rsatmalarda metodologiya masalalari va pedagogik o'yinlar nazariyasiga katta e'tibor berilgan. Pedagogik o'yinli, munozarali, muammoli masalalarni yechish amaliy mashg'ulotlarda har bir mavzu bo'yicha o'yin texnologiyalar asosida adabiyotlarda manbalar taklif etiladi. Biz talabalarga o'yin mashg'ulotlarini bajarishdan oldin quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etamiz:

- mavzu yuzasidan zaruriy adabiyotlarni to'plash va ularni o'rganish;
- fikrlab, o'ylab, o'yinning rejasini tuzish;
- asosiy manbalarning to'g'rilingiga ishonch hosil qilish;
- adabiyotlarda ko'rib chiqilgan asoslarni taqqoslab ulardan umumiy va xususiyalarini ajratish;
- o'yinga tegishli ko'rgazmali qurollarni tayyorlash, shaxsiy kuzatishlar, tajriba va hayotiy mohirlikdan foydalanish. Ta'limgarayonida o'tkaziladigan o'yinlar talabalarning nafaqat fanga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, balki ularning milliy qadriyatlar va madaniy-meroslarimizdan foydalanishning asoslarini mukammal bilib olishga asos bo'ladi. Bu nazariya pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik texnologiya shakllar, metodlar, yo'llar, usullar, tarbiyaviy vositalarni, tanlab olish va joylashtirishni, aniqlovchi psixologik-pedagogik, ko'rsatmalarning majmuidan iborat. Texnologik tuzilmalarning yordamida o'quvtarbiya ishining bironta yoki bir nechta jabhalarda talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishda samarali natijalarga erishish ta'minlanadi. Shunday qilib, o'yin texnologiyasini tashkil qilishda professor-pedagoglar va talabalarning o'zaro bir-biriga bog'liq ishi dasturlashtiriladi. O'yin texnologiyalarining bir necha modifikatsiyalari mayjud:

1) Imitatsion o'yinlar. Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andaza qilinadi. Voqealar kishilarning biron faoliyati yoki holati namuna qilib olinishi mumkin. Ssenariyda bunday o'ynash yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan obyektlar va jarayonlar belgilanadi.

2) Operatsion o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga mos modellashtiriladi.

3) Rol ijro etish o'yinlari. Unda aniq shaxsning xulqi xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

4) Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o'rnatna olishga o'rgatishdir.

5) O'yinga kirishish. Bu bosqichda o'yin rejasi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh rejasi belgilanib olinadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash kerak boladi.

6) O'tkazish bosqichi. Bu o'yin jarayonidir. O'yin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgatira omaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

7) Tahlil bosqichi. O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi, o'zaro fikr almashinadi, talabalar o'z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin texnologiyalaridan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra, mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixoglarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror egallash, o'zini-o'zi boshqarish va shuningdek, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yin hissiy ko'tarinkilikka xosdir. U

o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga aloqador qoidalar bo'lishini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadning belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi. Va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yin faoliyatini motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarni qondirishdan kelib chiqadi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi esa mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtainazarlar, ma'naviy-estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashni topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

O'qishga bo'lgan yordamni olish uchun unga har bir masala mustaqil va ijodiy yondashishni zarur. Ta'lif jarayonining samarali bo'lishi, eng avvalo, pedagogning faoliyati to'g'ri tashkil etish bog'liq. Pedagogik texnologiyaning asosli negizi ham aynan shu hamkorlikka tayanadi. Ya'ni, o'qituvchi va o'quvchiga yordam olish yo'lida qo'llab-quvvatlash texnologiyalaridan foydalanish kerak. Agari ta'lif texnologiyalari orqali o'quv quvvat olish imkoniyatlariga erishish – ya'ni o'quvchilar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil qila olsa, ishlab chiqarishni o'rgansa, o'ziga va guruhiga baho bera bo'lsa, o'qituvchi esa buning uchun sharoit va imkon yaratib bera bo'lsa – bunday ta'lif albatta yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Shuni unutmas lozimki, har bir dars, mavzu yoki fan o'ziga xos pedagogik texnologiyani talab qiladi. Ya'ni pedagogik texnologiya – bu yakkalangan o'quv jarayoni bo'lib, o'quvchining



harakatidan chiqib, aniq yo' va u kelib chiqqan, oldindan belgilangan kafolatlangan natijani nazorat qilish tizimili pedagogik faoliyatdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy pedagogik metodlar asosida ta'lif va tarbiyani uyg'unlashtirish — bu o'z oldiga muhim vazifalar qo'ygan jamiyat uchun muhim strategik yo'nalishdir. Ta'lif-tarbiya mexanizmlarining ishchi va puxta tayyorlangan bo'lishi, talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham pedagoglar doimiy ravishda zamonaviy metodlarni o'zlashtirib borishi, ijodkorlik bilan qo'llashni ta'lif tizimini oshirishning muhim omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shaklantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. -364 b.
2. Xustav A. Rol innovatsii v razvitii obrazovaniya i nauki. – M., 2004.
3. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va mahorat. – T., 2003.
4. Yo'doshev J.G. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2000